

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7880806>

Isamova Shahnoza

Toshkent shahri. Toshkent To'qimachilik va Yengil sanoat instituti. yengil sanoat texnologiyalari va dizayn fakulteti 1-bosqich talabasi

Annatsiya: *Ushbu ilmiy ishida Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti tomonidan Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek hayoti va ijodini to'laqonli yoritdim, ilmiy-tadqiq qilish yo'nalishida mustaqil ravishda izlanish olib bordim. Ilmiy ish O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan atoqli adib Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek xotirasiga bag'ishlanadi.*

Kalit so'zlar: *Adabiyot, she'r, asar, o'zbek, nasriy asar, ozodlik, taqdir, hissiyot, Navoiy, Navoiyshunoslik, roman, xotira, oy.*

Kirish :

Oybek va boshqa adiblarning o'zbek madaniy va ma'naviy san'ati va adabiyotidagi o'rni.

O'zbek adabiyoti va so'z san'ati uzoq tarixga borib taqalar ekan unda ijod qilgan buyuk mutafakkirlar, shoir, adiblar va so'z ustalarini ko'rishimiz mumkin. Unda ijod qilganlarning asarlari o'z davrida butun dunyoga dong'i ketkani va bu asarlar hozirgi kungacha olim-u ulamolar tomonidan o'rganilishi, dunyo xalqlari va san'atsevar adabiyotshunoslar tomonidan sevib o'qilishi hammamizga ma'lum. O'zbek adabiyoti samosining eng porloq yulduzlaridan bo'lmish Mir Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Nodirabegim, Sad'iy Sheroziy, Uvaysiy, Lutfiy va shu kabi adiblar qadimgi o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirganlar. Ularning ijodi bizning iftixorimiz bo'lmish milliy o'zbek tilimiz asos topishida ulkan poydevor bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

XIX-XX asrlarga keladigan bo'lsak O'rta Osiyo tarixida bo'lgan voqealar yurtimiz adabiyot sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan. O'sha davrlarda mamlakatimiz rus tuzumida bo'lishiga qaramay she'r, nazm va romanchilik yo'nalishlarida ulkan yangi qadamlar tashlagan. O'z zamonasidagi og'ir bosimga qaramay ijodkorlar milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, yurtimiz tarixiga oid turli adabiy asarlar yaratganlar. Abdulla Qodiriy, Behbudiy, Usmon Nosir, Fitrat, Muqimiy kabi adabiyotimizning yirik namoyondalari hozirgi kunga kelib bizning faxrimizga aylanganlar. Ularning bizga qoldirgan tuganmas ma'naviy merosi : roman, qissa, she'riy talqinlari dostonlari, kitoblari qisqa qilib aytganda milliylikimizni o'zida aks etkan adabiy asarlari bizning haqiqiy boyligimizdir. Ushbu sanab o'tkan adiblarimiz nafaqat tarix va qadriyatlarimizni balki boshqa keng mavzularni ham ommaga taqdim qilganlar. Ularda ezgulik va yovuzlik, haqiqat va yolg'on, adolat, inson kechinmalari,

oila va undagi muhit, xalqning dardi, xohish-istaklari kabi mavzular ko'tarilgan va oddiy so'z yordamida keng yoritilgan. Ular ommaga taqdim qilgan asarlar va ularning mavzulari hatto hozirgi kunda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Shuning uchun ham ushbu asarlar haligacha turli tillarga tarjima qilinmoqda, maktablarda, o'quv kitoblarida yosh avlodga o'rgatilmoqda. O'z romanlari, she'r, va tarjima asarlari bilan o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan yozuvchi Oybek ham bundan mustasno emas.



1. Bolalik yillarim – yohud yosh shoirning adabiyot yo'lini tanlashi.

Buyuk o'zbek adibi Oybekning asl ism sharifi Muso Toshmuhammad o'g'li. U 1905-yil 10-yanvarda Toshkentda tug'ilgan. Otasi tirikchilik tashvishlari deb umrining aksar yillarini shahar atrofidagi tumanlarda baqqolchilik bilan o'tkazgan. Shuning uchun ham bo'lajak yozuvchining tarbiyasi bilan onasi Shahodat Nazar qizi va bobosi shug'ullanganlar. Oybekning o'sha kezlardagi hayoti uning „Bolalik xotiralarim“ kitobida tasvir etilgan. Oybekning tug'ilgan sanasi uning turli yillarga oid tarjimai hollarida turlicha qayd etilgan. Agar adib „She'rlar“ kitobi (1963) ga ilova qilgan tarjimai holida tug'ilgan sanasini 1904- yil 22- dekabr deb ko'rsatgan bo'lsa, o'n jildlik „Asarlar“ to'plamining 1-jildi (1968) da „Men Toshkentlikman“, 1905-yil 10-yanvarda eski shaharda o'rta hol hunarmand-bo'zchi oilasida tug'ildim“ deb yozgan. Shu so'nggi ma'lumot ilmiy muomalada Oybekning tug'ilgan sanasi sifatida qabul qilingan.

Oybek dastlabki ma'lumotni eski maktabda oldi. So'ng „Namuna“ maktabida, ta'lim va tarbiya texnikumida o'qidi. Oybek G'afur G'ulom singari XX asr boshlarida tug'ilgan yozuvchilar o'z tarjimai hollarida madrasada tehsil ko'rganyillarini davr taqozosi bilan chetlab o'tib, eski maktabda o'qiganlari haqida ma'lumot berganlar. Holbuki, Oybek Toshkentdagi Oqmasjid mahallasidagi madrasada tehsil ko'rib, shu yerda arab, fors tillarini o'rgangan hamda shu yerda Ahmad Yassaviy, So'fi Olloyor, Alisher Navoiy singari mashhur shoirlar ijodi bilan tanishgan. „Namuna“ maktabi (1918-1921) va Navoiy nomidagi ta'lim tarbiya texnikumida (1921-1925) da o'qib

yurgan kezlarida boshqa tengdoshlaridan o'z iqtidori va zehni o'tkirligi bilan ajralib turadi. Uni Munavvar qori Abdurashidxonov shogirdi sifatida ilm o'rgatadi.

Oybek 1925-yilda O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi Tosh Du) ijtimoiy fanlar fakultetining siyosiy iqtisod bo'limiga o'qishga kirdi. Universitetni 1930- yilda tugatgach shu ta'lim muassasasida iqtisoddan dars bera boshlaydi. 1933- yilda Madaniy qurilish ilmiy – tekshirish institutida ham ishlay boshladi. 1934- yilda bu ilmiy markaz Til va adabiyot institutiga aylantirildi. O'quvchilik yillaridayoq u shug'ullana boshlagan adabiyot uning ikkinchi kasbi bo'lib qoldi.

„Biroq 1935-yilda shunday bir payt kelib qoldiki, - deb yozgan Oybek tarjimayi holida, - men endi olim iqtisodchi va yozuvchilikdan birini tanlab olishim zarurligini his eta boshladim. Shunda haqiqiy orzuyim adabiyot ekanligini tushundim...”

Oybek o'zbek adabiyotida tarixiy-biografik roman janrini boshlab berdi, Navoiyshunoslik faniga tamal toshini qo'ydi, o'zbek tarjima maktabini yangi bir bosqichga ko'tardi.

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek o'zi mansub bo'lgan adabiy avlod vakillaridan farqli o'laroq, 20-yillar she'riyatida ba'zi bir istisnolardan qat'iy nazar davrning o'tkinchi ijtimoiy mavzulari emas balki lirik tuyg'u va kechinmalar tasviriga kata e'tibor berdi. Oybekning 1926- yilda nashr etilgan dastlabki she'riy to'plamining „Tuyg'ular” deb atalgani bejiz emas. Oybekning lirik shoir sifatidagi iste'dodi uning tabiat manzaralari tasviriga bag'ishlangan she'rlarida yana ham yorqin jilva berib turadi. Oybekning lirik she'riyatiga tabiat tasvirining bahor shabadasidek kirib kelishi va kata o'rin egallashida uning 1936- yil yozida Chimyonda uch to'rt oy yashagani muhim omil bo'ldi. Ma'lumki, shu yili Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Abdulla Qahhor singari bit guruh shoir va yozuvchilar Chimyonga chiqib, ulug' shoir Aleksandr Sergeevich Pushkin asarlarini tarjima qilganlar. Oybek uning „Evgeniy Onegin” she'riy romanini o'zbek tiliga tarjima qilish bilan birga, o'zining mashxur „Chimyon daftari” she'rlari turkumini ham yaratgan. Oybekning tabiat tasviriga bag'ishlangan she'rlarini o'qir ekanmiz, uning kata va o'tkir ko'zlari tabiatdagi betakror nafosatni ham teran ko'rganiga amin bo'lamiz. Bir she'rda shunday yozadi:

Quyosh, oltining cho'kkanday cho'kar sevinchim,
Sinadi ichimda umidning toshi,
Qalbimni yirtadi uning sadosi
Yupatmas na hayol,sevgi ro'yosi,
Yuramen, oqshomga singan izim.

She'rni o'qir ekanmiz, Oybekning „Lirika ko'pincha shoir fikrlarini tuyg'ularini kulaydi” degan so'zlari to'g'ri ekaniga ishonch hosil qilamiz.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Oybek Moskva ostonalarida jang qilayotgan o'zbek jangchilariga sovg'a salom olib boorish va ularga badiiy xizmat ko'rsatish uchun frontga yo'l oladi. Urushning daxshatli manzaralarini o'z ko'zi bilan ko'radi. Yon daftariga yozilgan, keyinchalik o'zbek harbiy lirikasining gultoji bo'lgan quyidagi satrlar ana o'sha yillar mahsulidir:

Yig'I kelmaydi sira,
G'azabdan qaqragan ko'z.
Bu yo'llarning yaxidek
Labimda qotibdi so'z...

Oybek o'zbek adabiyatini o'zining bir qancha dostonlari bilan boyitgan san'atkordir. „Dilbar davr qizi“ (1932) , „Navoiy“ (1937) , „Qizlar“ (1947) , „Davrim jarohati“ (1965) , „Guli va Navoiy“ (1968) ana shunday asarlar sirasiga kiradi. Shu bilan birga „Mash'ala“ , „Baxtigul va Sog'indiq“ singari she'riy kitoblari ham nashr etiladi va shoir el-yurt og'ziga tushadi.

Ko'p o'tmay 1937-yil qatag'oni boshlanadi. Oybek millatchi sifatida Til va adabiyot institute hamda yozuvchilar uyushmasidan haydaladi. Uning asarlarini chiqarmay qo'yidilar. Erta-indin qamalishi mumkin bo'lgan yozuvchini hech bir yerga ishga olmadilar. Xalq va davlat oldida aybsiz ekanligiga ishongan temir irodali adib xuddi shu kezlarda o'zining birinchi yirik nasriy asari - „Qutlug' qon“ romani ustida ish boshladi. Ko'p o'tmay daxshatli bo'ron tinib Oybrk Toshkentdagi nashriyotlardan biriga tarjimon sifatiga ishga olinadi. Xuddi shu yillarda u „Antik adabiyot“ majmuasining Rim adabiyotiga bag'ishlangan jildini o'zbrk tiliga tarjima qildi. Ketma-ket „Qutlug' qon“ romani nashr etilib xalqimizning sevimli kitobiga aylanib ketdi. 1941-yilda nashr qilingan „Qutlug' qon“ romaniga qadar kitobxonlar Oybekni asosan shoir sifatida e'tirof qilganlar. Uning „Mash'ala“ jurnalida bosilgan „Globus“ nomli hikoyasi ko'pchilikning yodidan allaqachon ko'tarilgan, „Gulnor“ , „Fonischi ota“ , „geografiya muallimi“ , „Musicha“ , „Kurashchi yigit“ singari uch to'rtta hikoyasi esa umuman chop etilmagan. Shuning uchun ham mazkur romanning paydo bo'lishi adabiy jamoatchilik uchun kutilmagan kashfiyot bo'lgan. O'zbekdek zulmga ham, xorlik-zorlikka ham, ochlik, yalong'ochlikka ham chidamli xalq bo'lmagan. U hatto yurtini egallab , nonini „tuya“ qilib kelgan istelochilarini ham , o'zbekona mehmonavozlik qonuniga ko'ra boshiga qo'yib kelgan. U faqat bir narsani – farzandlarini issiq bag'rlaridan yulib olishlarini o'ziga og'ir oladi. Farzand dog'idek og'ir dog' bo'lmaydi o'zbekda. Shuning uchun ham xalq 1916- yilgi mardikorlikka qarsji yakdil bo'lib qo'zg'olon ko'tardi. „Qutlug' qon“da xuddi ana shu yillar voqealari tasvirga olinadi. Oybek qo'zg'olon arafasida xalqning turli qatlamlarga ajrilib chiqqanini, ana shu qatlamlanish milliy ozodlik harakatini keltirib chiqqanini ko'rgani uchun ham ana shunday tasvir uslubini yaratgan. Ushbu romanda mamlakat o'tmishidagi hayot haqiqati mohirona ko'rsatilgan. O'zbek xalqining 1917- yildagi to'ntarish arafasidagi og'ir hayoti, ozodlik yo'lida olib brogan kurashlari keng va atroflicha tasvirlangan. Romanning bosh qahramoni Yo'lchi yangi hayot kurashchisi sifatida shakllana boshlagan o'zbek mehnatkashi obrazidir. „Qutlug' qon“ romanida xotin-qizlarning rang barang obrazlari berilgan ular orasida ayniqsa Gulnor timsoli alohida ajralib turadi. Adib Gulnor orqali xotin qizlarning achchiq taqdirini, fojeali qismatini umumlashtirib tasvirlab bergan. Romanda Shoqosim ,Qoratoy, O'roz, Shokir ota, Qambar, Yormat, Unsin kabi obrazlari ham jonli, to'laqonli bo'lib chiqqan.

Romanda ayniqsa Mirzakarimboy obrazi puhta ishlanganini unung hissiyot va kechinmalari kitobxonga yaqqol ifodalanishini ko'rishingiz mumkin. „Qutlug' qon” romani til va badiiy mahorat jihatidan ham g'oyatda diqqatga sazovor asardir. Asarda adib obraz yaratishda psixologik tahlil san'atidan, xalq tili so'z boyluklaridan ustalik bilan foydalangan.

Oybekning „Qutlug' qon”, „Navoiy”, „Ulug' yo'l” romanlarida xalqimizning o'tmish hayoti tasvirlansa, „Oltin vodiya shabadalar” (1959), „Nur qidirib” (1957), „Bolalik” (1963) qissa va romanlarida zamonaviy voqelik aks ettirilgan.

Oybek urush va urushdan so'nggi davrlarda ham she'riy asarlar yaratishda yaxshi natijalarga erishdi. Oybek urush davrida harbiy – mudofaa mavzusida „Yovga o'lim”, „Vatanni sev”, „Kunlar kelarki”, „Zafar bizniki”, „Ona so'zi”, „Xayrlashuv”, „Yigitlarga” singari yuzga yaqin she'rlar yozdi. Bu asarlarda jangchilarimizning qahramonligi, xalqimizning vatanparvarligi kata g'urur va samimiyat bilan kuylanadi. Ona vatan obrazi butun salobati bilan chizib beriladi.

Oybek urushdan so'nggi yillarda ham xilma-xil va dolzarb mavzularda she'rlar yozdi. Ayniqsa epic she'riyat imkoniyatlaridan unumli foydalandi. „Hamza”, „Qizlar”, „Zafar va Zahro”, „Haqgo'ylar”, „Davrim jarohati”, „Bobur” nomli liro-epik asarlar yozdi, o'zbek dostonchilik taraqqiyotiga ulkan o'z hissasini qo'shdi. Oybek ozgina bo'lsada o'z kuchini dramaturgiyada ham sinab ko'rdi. U urush yillarida Chingizxon istilosiga qarshi ko'tarilgan xalq harakatlaridan biriga murojaat etib, vatandoshlarida fashizmga qarshi kurash maylini rag'batlantiruvchi „Mahmud Torobiy” operasi librettosini yozdi (1944) va shu mavzu bo'yicha drama teatrlari uchun „G'alvirchi”, rus adibi va adabiyotshunosi A.Deych bilan hamkorlikda esa rus tilida „Xalq qalqoni” pyesalari ustida ishladi. Oybek bu asarlarida ham tarixiy jarayon qonuniyatlarini yaxshi bilgan, tarixga xalq manfaatlarini nuqtayi nazaridan yondashuvchi yirik olim sifatida namoyon bo'ldi.

Serqirra ijod sohibi Oybek jahon va rus adabiyotining eng yuksak namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilib Cho'lpon va Qodiriy asos slogan o'zbek tarjima maktabini o'zining yuksak darajadagi tarjimalari bilan boyitdi. O'zbek kitobxonlari Oybek tarjimasi orqali Rim adabiyoti namunalari, J.B. Molyerning „Tartyuf”, A.S.Pushkinning „Yevgeniy Onegin”, M.Y. Lermontovning „Maskarad”, „Dovud Sosunli” arman eposi, G.Genye, I.A.Krilov, V.G. Belinskiy, E. Verxarn va boshqa asarlari bilan tanishdi.

2.Oybekning „Navoiy” asari: Navoiyshunoslik faniga ilk qadam

Birinchi romanining muvaffaqiyatidan ilhomlangan adib „Navoiy” romani ustida ish olib bordi va uni ikkinchi jahon urushi yillarida tugatdi. „Navoiy” romani – 1942-yilda Oybek tomonidan yozilgan tarixiy roman. Oybekning ushbu romanida Navoiyning hayot yo'li, o'sha davrdagi hayot va murakkab siyosiy voqealar aks ettirilgan. Roman turli qarama-qarshiliklar va muhokamalardan so'ng ilk marotaba 1944-yilda nashr etilgan.

Asar hozirgacha rus, ingliz, ukrain, nemis, belorus, qozoq, turkman, ozarbayjon, tojik, arab, fors, eston, latish va xitoy tillariga tarjima qilingan. O'zbek tilida uzoq yillar

davomida bir necha bor qayta nashr etilgan. Roman 2004- yilda Sharq nashriyot-manbaa aksiyadorlik kompaniyasida 497 betli qattiq muqovada 10 000 nushada, 2019-yilda Yangiyo'l Poligraph Servise nashriyotida 2021-yilda Yangi asr avlodi nashriyotida ingliz tilida chop etildi.

„Navoiy“ tarixiy-biografik roman janrining nodir namunasi. Roman voqealari 18 yoshli yigit – Alisher Navoiyning Samarqanddan Hirotga qaytishi bilan boshlanadi va Navoiy hayotining eng samarali eng sermazmun davrlarini qamrab oladi. Asar voqealari Navoiyning o'limini aks ettirish bilan yakunlanadi. Asarda Navoiy tarjimai holining asosiy bosqichlari hayot haqiqatiga mos holda yorqin tasvirlangan. Asarda Navoiyning oliyjanob fazilatlari, ajoyib hislatlari, Vatan, xalq va adabiyot oldidagi buyuk xizmatlari birin-ketin ochib boriladi. Romanda Husayn Boyqaro, Xadichabegim, Mo'min Mirzo, Darveshali, Binoiy, Majididdin singari tarixiy shaxslar obrazi ham berilgan. Ustalik bilan yaratilgan bu obrazlar bosh qahramon Navoiy xarakterini ochishda muhim o'rin tutadi. „Navoiy“ romani o'zbek tarixiy romanchiligi tilining shakllanishida ham muhim ro'l o'ynaydi. Asar tili o'tmish davrining jonli tilini yartish namunalari biri bo'lib qoldi, unda besh yuz avval yashagan tarixiy qahramonlarning tili hozirgi kitobxonlarga tushunarli qilib qayta shakllantiriladi. „Navoiy“ romani o'zbek va rus tillarida bir necha marta nashr etilgan asar. Navoiydan keying davr uning asarlariga qiziqishni oshirsa oshirdiki, aslo kamaytirmadi. Oybek asarda buyuk Navoiy bobomiz siymosini yaratdi. Bundan besh asr avval yashab o'tkan ulug' shoirni aniq va yaqqol tasavvur etish buyuk yozuvchigagina xos. Oybek romanda mutafakkir shoir obrazini yaratishda Navoiyning turkiy til va adabiyotga bo'lgan munosabati tasviridan ham o'rinli foydalangan. Asarda Navoiy obraziga xos hususiyatlar – sofdillik, qat'iyat va oliyjanoblik kabi fazilatlarda namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, „Navoiy“ romani o'zining badiiy-estetik qimmatini, mazmun-mohiyati, badiiy-tasviriy vositalarga limmo-limligi, voqealarning izchilligi, tarixiy haqiqatning ko'zgusi bo'la olganligi, qahramonlarning bir-biri bilan, ya'ni to'qima va tarixiy obrazlarning uyg'unlashganligi bilan ham yuksak tahsin va e'tiroflarga loyiq asardir. Shu bois ham bu asar mana necha yillarki, o'z qadr-qimmatini yo'qotgan emas, yo'qotmaydi ham. Chunki chinakam badiiy san'at asari hech qachon o'lmaydi. Bunday asarni xalq unutmaydi. Oybekning o'zbek mumtoz adabiyotida yorqin siymo, ulug' mutafakkir sanalgan Navoiy obrazini go'zal tasvirlab bera olgan bu romani mangu yashayveradi.

OYBEK . „NAVOIY“ NI O'QIB

Lipillagan sham yorug'ida
Dil qoniga botirib barmoq,
O'ltirardi Hazrat Navoiy
Tangri bilan sirlashib uzoq.
Manqaldonda miltirardi cho'g'...
Darichadan to'kilgan oydek,
Asta chertib hujra eshigin

Kirib keldi Mavlono Oybek .

Takalluf va izzat-ehtirom
Yog'ilarkan har ikki yoqdan ,
Yangi g'azal uzatar Hazrat ,
Qurimagan hali siyohdan ...
Yechiladi Oybek tillari
Xudo sir deb slogan tugundan.
So'ylar ketar „Qush tili“da u ,
Tug'ilganday go'yo bugundan...
Yo tush ko'rdim, yoki sinoat,
Aql-u hushim chorbog' ichinda.
Mulozimman, men bir mulozim,
Jim tingladim titroq ichinda.
Goh anglab, goh anglamay, lekin
Ko'rmoq uchun shu lahzani bot,
Sening sirli tunlaring bo'lib
Qolgim kelar, o, go'zal Hirot!

3.Qorong'u tunda nur sochgan adabiyotimizdagi oy va yulduzlar.

O'zining hayrotomus iste'dodi bilan xalqimizning sevimli shoiri bo'lib adibning xalqaro miqyosida o'sib borayotgan obro'si hasadchilarga tinchlik bermadi. Ular Oybek asarlaridan siyosiy xato axtarib, uni millatchiga, „xalq dushmani“ga chiqarmoqchi bo'ldilar. Ana shunday asabiy bir sharoitda Oybek og'ir xastalikka yo'liqib, umrining so'nggi 17 yilini shifokorlarning doimiy nazorati ostida o'tkazdi.

Bu davrda mamlakat hayotida, moddiy va ma'naviy turmushda jiddiy o'zgarishlar va yangiliklar bo'ldi, ma'naviy hayotning barcha sohalarida keskin burilish yuz bera boshladi. 1956- yilda iste'dod qurbonlari: Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir, Botu singari yozuvchilar oqlandi. 50- yillar o'rtalaridan erkinlik shabadalari esa boshladi. Respublikamizda adabiy hayotni sog'lomlashtirish yuzasidan ayrim tadbirlar amalga oshirildi. 1940-yillar ohiri 1950-yillar boshlarida qatag'onga uchragan Maqsud Shayxzoda, Said Ahmad, Shukrullo kabi yozuvchilar oqlanib, jo'shqin ijodiy mehnatga qaytdilar. Oybek, Abdulla Qahhor kabi ulkan yozuvchilarga qarshi uyushtirilgan fitna – asossiz ayblarga chek qo'yildi.

Mana shu omillar tufayli adabiyotda jonlanish yangi bir ko'tarilish boshlandi. Keksa bo'g'inga mansub Oybek, Abdulla Qahhor, Zulfiya, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir g'ayrat bilan ijodga kirishdilar. Shuhrat, Said Ahmad, Shukrullo, Mirmuhsin kabi yozuvchi-shoirilar 60-80-yillarga kelib, o'z iste'dodlarini to'laroq namoyon etdilar. O'sha hayotbaxt o'zgarishlar shabbodasi ta'sirida Saida Zunnunova, Odil Yoqubov, Pirmuqol Qodirov va ular bilan birga adabiyotga izma-iz kirib kelgan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, O'tkir Hoshimov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Usmon Azim, Tog'ay Murod, Xayriddin Sulstonov, Muhammad Yusuf kabi iste'dodlar milliy

adabiyotimiz rivojiga yangi to'liq olib kirdilar. Bu davr adabiyotida bir qator sifat o'zgarishlar paydo bo'ldi. Yaqin kechmishga yo'l qo'yilgan xatolarni qalamga olish, qatag'onlar tufayli kishilarimiz boshiga tushgan kulfatlarni aytish – ifodalash uchun yo'l qo'yildi. Zamonaviy mavzudagi asarlar, real hayot muammolari dadilroq o'rtaga qo'yiladigan bo'ldi.

Bu davr o'zbek adabiyotida asosiy e'tibor hayot va kishilar oldidagi o'zgarishlarni tasvirlashga qaratildi. Shuningdek jahonda tinchlik uchun kurash, xalqlar do'stligi, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi adabiy mavzular milliy she'riyatning diqqat markazida turdi. Vatan va zamon, odam qadri va insoniy burch, sevgi-muhabbat haqida ko'plab she'rlar yaratildi. Bu davrda o'zbek adabiyoti hayotidagi ibratli va go'zal narsalarni, ijobiy tamoyillarni aks ettirish bilan birga turmushda uchraydigan poraxo'rlik, mansabparastlik, ko'zbo'yamachilik, ig'vogarlik, to'rachilik, ikkiso'zlamachilik kabi illatlarni fosh qilishga ham e'tibor qaratildi. Natijada qator hajviy she'rlar, masal va feletonlar yaratildi. Mazkur davrda o'zbek she'riyati shakl va janr, til va uslub jihatidan ham boyidi. Zamonaviy mavzudagi asarlarda real hayot muammolari dardliroq o'rtaga qo'yiladigan bo'lib qoldi. Adabiyot maydoni millat sha'nini toptovchi „O'zbek ishi“ deb atalgan yangi qatag'on siyosatiga qarshi yangi kurash asosiy mavzuga aylandi: adiblarimiz toptalgan milliy qadriyatlarimizni tiklash, ona tilimizga davlat maqomini berish, nihoyat milliy mustaqillik yo'lida oshkora kurash olib bordilar. Adabiyotda jamiyat inqirozi tasviri, ijtimoiy adolat, erkparvarlik, milliy ozodlik g'oyalari oshkora namoyon bo'la bordi.

Adiblarning yorqin asarlari bu davrda dunyo yuzini ko'rdi. Go'yo zulmatdan nurga chiqqandek yildan yilga yangi kitoblar, she'r va romanlar mavzulari yorqinlashib bordi.

Xudo Oybekka kata iste'dod bilan birga g'ayrat va shijoat ham ato etkan ekan. U xastaligiga qaramay talaygina romanlar, qissalar, dostonlar, she'rlar, maqolalar yozdi. XX asr o'zbek adabiyotida Oybekdek ko'p ishlagan boshqa adibni topolmaysiz. Uning shoir, yozuvchi, adabiyotshunos va tarjimon sifatida yaratgan asarlari yigirma jildni tashkil etgan.

Oybek O'zbekiston xalq yozuvchisi, O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi degan sharaflarga erishgan.

Adib 1968-yil 1-iyul kuni, Payg'ambar yoshida vafot etkan. Uning qabri Forobiy qabristonida joylashgan.



4.Oybek xotirasi va uni ababiyashtirish yo'lida.

Oybek o'zining rang-barang ijodi va ulkan jamoat arbobi sifatidagi faoliyati bilan o'zbek xalqining madaniy yuksalishiga kata hissa qo'shdi. 1980- yilda adib yashagan uyda Oybek uy-muzeyi tashkil etilgan va unga haykal o'rnatilgan. Toshkentdagi maktab, xiyobon va metro bekatlaridan biri Oybek nomi bilan atalgan, Termiz davlat universiteti, Toshkent viloyatidagi jamoa xo'jaligiga Oybek nomi berilgan. Oybek vafotidan keyin 2001-yilda „Buyuk xizmatlari uchun“ ordeni bilan taqdirlangan.

Toshkentning „ishchilar shaharchasi“ deb atalgan dahalaridan birida ilm-fan va madaniyat ahli uchun, ayniqsa, tabarruk dargoh bor. Bu dargohda 1940-yildan 1968-yilga qadar, ya'ni hayotining so'nggi daqiqalariga qadar buyuk o'zbek adibi va jamoat arbobi Muso Toshmuhammad o'gli Oybek yashab, ijod qilgan.

Oybek barhayot chog'idayoq el-yurt o'rtasida nafaqat buyuk adib va buyuk inson sifatida mashxur bo'lgani uchun, xalqona ibora bilan aytganda yeti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan toshkentliklar ham, poytaxtimizga yaqin va olis yurtlardan kelgan adabiyot muhlislari ham shu xonadonga kelib, o'zbek adabiyotining bu porloq siymosini ziyoratqilishni o'zlari uchun fahr deb hisoblaganlar. Moskva va Kiyev, Tbilisi va Boku, Almaota va Ashxobod singari shahlardan kelgan atoqli yozuvchilar, tarjimonlar va adabiyotshunos olimlar esa bu xonadonda Oybek bilan bo'lib o'tkan suhbatlarni hayotlarining unutilmas daqiqalari sifatida yod etib yashaganlari.

Oybek 1905-yil 10-yanvarida Toshkent shahrining Gavkush mahallasida dunyoga kelgan. Bu mahalla O'zbekiston Milliy akademik drama teatrining binosi o'rnida joylashgan edi. Bo'lajak adib tor va ilon izi yanglig' egri-bugri mahalladagi g'arib bir oilada tug'ilganligi uchun ta'lim va tarbiya texnikumining yotoqxonasida yashab o'qigan. Oila qurganidan keyin esa Toshkentning 4 dahasida, ijara uylarda umr kechirgan. Nihoyat, 1940-yili davlat fan va madaniyat xodimlariga ham yer taqsimlab bera boshlaganida, unga olti yuz kvadrat metrli yer nasib qilgan. Adibning rafiqasi Zarifaxonim qurilishning ham „arxitektur“ i, Oybekning o'zi esa ham pul topuvchi, ham eski, qing'ir-qiyshiq mixlarga „yangi hayot“ bag'ishlovchi „chilangir“ sifatida ustalar bilan birga ishlab, o'sha yilning 30- dekabrda yangi uyiga – o'z uylari – o'lan to'shaklariga kirishgan.

„Bu baxtli kunlarimizning biri edi, - deb eslagan Zarifaxonim o'sha „tarixiy“ kunni. – Uy hali bitmagan, faqat ikki xonaning ganchi, shipi, sahni tayyor edi. Boshqa

xonalarni holimizga qarab, qo'limizga pul tushganda, taxta olib, faner olib, yarim yil davomida bitirib oldik..."

Uy qad ko'targan mashaqqatli yillarda halim hamma imoratlar qurilib, yo'l-u yo'laklar aniq qiyofa kasb etmagan edi. Shu tufayli ko'cha „Proyektnaya” - „Loyiha” ko'chasi deb atalgan. Hozir shu ko'chaga „1-Iftixor” nomi berilgan. Agar shu ko'cha bo'ylab uch-to'rt daqiqa yursangiz, 26-uy keladi. Kata darvozaning so'l tarafidagi devorga buyuk o'zbek adibi Oybekning 1940-1968- yillarda shu uyda istiqomat qilganligi haqida lavha osilgan.

Oybek...XX asrning 50-60-yillariga qadar Eski shahardagi bir-biri bilan tutashib ketkan uylarning loysuvoq tomlari bahor oylarida lolaqizg'aldoqlar bilan burkangan, havo behad darajada toza bo'lganligi sababli oy va yulduzlar haddan ziyod yaqin ko'rinar edi.shunday nash'ali kunlarda yosh kelinlar ham go'daklarini ko'tarib , lolazor tomlarda Oy va yulduzlarga mahliyo bo'lardilar. Oymomoga ayniqsa, ishqivoz bo'lgan Muso qo'lini ko'kka cho'zib: „Oyi oyni olib ber!” deb onasiga yalinar edi... Ana shu bolalik xotirasini unutmagan Oybek ilk she'rlarini yoza boshlaganida o'ziga „Oybek” degan tahallusni oladi. Hozir qanchadan qancha go'zal she'rlar,qissa va romanlar, maqola va ilmiy asarlar tepasidan ana shu munavvar tahallus bamisoli Oy singari nur sochib turadi.

Oybek uy-muzeyi adib tug'ilgan kunning 75 yilligi munosabati bilan 1980-yilda barpo etilgan. Muzey ikki qismdan iborat bo'lib, 1940-1941- yillarda qurilgan 5xonali binodan adibning hayot va ijod yo'lini aks ettiruvchi ekspozitsiya o'rin olgan. Hovlining shimoliy tarafidagi binoda esa memorial xonalar: mehmonxona, ijodxon (birinchi qavatda), bolalar xonasi va yotoqxona (ikkinchi qavatda) joylashgan. Ikkinchi qavatga dahlizdagi yog'och zinalar o'sha, devorlardagi A.Siglinsev ishlagan gravyuralarni tomosha qilib, chiqiladi.

Tashrifchilar kata darvozadan o'tib, ichkariga kirganlaridan so'ng, so'l tomondagi bir zamonlar terrasa (ayvon) bo'lib xizmat qilgan xonada Oybek uy-muzeyining ekspozitsiyasi bilan tanisha boshlaydilar.5 xonadan iborat bu qismga kiraverishda, o'ng tomonda mo'jazgina xona bor. Unda adibning rafiqasi, birinchi o'zbek rassom qizi va birinchi o'zbek kimyogar olimasi Zarifa Saidnosirova va uning otasi – mashhur ma'rifatparvar va tadbirkor Saidnosir Mirjalilovga oid eksponatlar: rasmlar, hujjatlar, buyumlar, kartinalar namoyish etilgan. Xonaning bir chekkasida – molbert. U O'zbekiston xalq rassomi O'rol Tansiboyevdan yodgorlik. Zarifaxonim u bilan birga buyuk rus rassomi Ilya Repinning shogirdi N.N.Rozanov studiyasida tasviriy san'at „sir”larini o'rgangan. Shu xona devorlaridagi moybo'yoq bilan ishlangan tabiat manzaralarini Zarifaxonim umrining so'nggi yillarida ishlagan.

Bu xonadan chiqqaningizdan keyin, nazarimda Zarifaxonim, sizni Oybekning bolalik va yoshlik davri bilan tanishtiruvchi xonaga boshlagandek bo'ladi. Mana, XXasr boshlaridagi Toshkent ko'rinishi, adibning o'sha davrdagi suratlari, u tehsil olgan bilim yurtining domla va talabalari, ilk she'rlarining qo'lyozma va bosma nusxalari; Oybek

ijodining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan shoirlar va ularning kitoblari. Xona derazasidagi vitrajdan esa Oybek sevgan Oy Toshkent osmonidan mo'ralab turadi.

Ikkinchi xona sizni Oybekning 30-40-yillardagi hayoti va ijodibilan oshno etadi. U shu yillarda Navoiy va Pushkin ijod buloqlaridan hovuchlab suv ichdi. Navoiyga bag'ishlab she'r va ilmiy maqolalar yozdi, Pushkinning „Yevgeniy Onegin“ she'riy romanini birinchi bo'lib O'rta Osiyo xalqlaridan birining tiliga tarjima qildi. 1937 yilning daxshatli bo'roni gurlaganda, u Cho'lponning „dum“I Turkiston Muxtoriyat hukumatining xazinachisi S.Mirjalolovning kuyovi sifatida qoralanib, yozuvchilar uyushmasidan ham, Til va adabiyot institutidan ham haydaladi. Shunday xatarli zamonda oilasi goho-goho bir burda nonga zor bo'lib yashaganiga qaramay, shoir o'zini yo'qotib qo'ymadi va „Qutlug' qon“ romanini yaratadi. Xona o'rtasidagi to'rt qirrali vitrinadan ko'rinib turgan turli tillardagi kitoblar „Qutlug' qon“ning jahon adabiyoti durdonalaridan biri bo'lganidan shahodat beradi.

Devordagi rasmlardan biridan o'zbek snayperi sizga qarab turadi. Bu rangli rasmni jangchi rassom ishlagan. Oybek 1942-yil ohiri-1943-yil boshlarida Moskva bo'sag'alarida jon olib, jon berayotgan o'zbek jangchilari huzuriga borganida uni 96 nafar nemisni yer tishlatgan azamat o'zbek yigiti sovg'a qilgan. Snayperlik miltig'iga „100“ raqamini yozishga ulgurmay halok bo'lgan bu jangchi adibning „Quyosh qoraymas“ romanidagi Bektemir obrazini yaratishiga turtki bergan.

„Front bo'ylab“, „Olovli yo'llar“ kitoblari bilan birga lyax tilida yozilgan she'rlar kitobi chexoslovakiyalik shoir Ondra Lisagorskiyning urushdan keyin Oybekka minnatdorchilik tuyg'ularini izhor qilib yuborgan sovg'asi.

Uchinchi zaldagi ekspozitsiya markasida Navoiy mavzui turadi. Oybekning ulug' shoir haqidagi o'lmas asari garchand urush yillarida yozib tugallangan bo'lsada, uning xalqaro e'tibor va shuhrat qozonishi urushdan keying davrga oid. Ushbu xonaga kirgan kirgan tashrifchi „Navoiy“ romanining tikanli similar ortida turgan yirtilgan-yamalgan bir nushasiga e'tibor bermay qolmaydi.

Bu sobiq o'zbek harbiy asirlarining Oybek uy muzeyiga sovg'asi.

O'zbek adabiyotini yangi bosqichga olib chiqqan va unda she'rlari, roman, dramaturgiya asar va hikoyalarini bilan o'zining o'chmas izini qoldirgan MusoToshmuhammad og'li Oybek xotirasini abadiylashtirish yo'lida nafaqat uy-muzeyi barpo qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18- aprelda „Alisher Navoiy“ nomidagi O'zbekiston milliy bog'I hududida „Adiblar Hiyoboni“ni barpo etish to'g'risida qaror imzolandi va u yerda boshqa mashxur xalqimiz ardog'idagi yozuvchilar bilan birga Oybek xotirasiga haykal o'rnatildi. Hozirgi kunga kelib har yili adabiyot festivallarida yoshlarimiz ushbu hiyobonda she'rxonlik, notiqlik musobaqalarini, adabiyot ga oid bayram-tadbirlarini o'tkazib kelmoqdalar. Bu bilan yosh avlodda milliy adabiyotimizga va unga bo'lgan mehr va qiziqishi ortib bormoqda.

Oybek – hayot chog'idayoq el-yurt o'rtasida nafaqat buyuk adib, balki buyuk inson sifatida mashxur bo'lgan benazir shaxs. Uning barhayot siymosi esa xotiralarimizda mangu qoladi...